



UDK:309.105(008)

Marjona ANVAROVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: marjonaanvarova98@gmail.com

QarshiDU dotsenti A.Xo'jaqulov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN FORMING THE SOCIAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

This article comprehensively examines the role and pedagogical significance of national values in shaping the social characteristics of preschool children in accordance with modern educational and upbringing requirements. In the course of the study, the essence of the concept of national values, their educational potential, and their influence on the process of socialization of the child in the preschool period are analyzed from a scientific and theoretical perspective.

Key words: Preschool age, child, communication, socio-psychological development, characteristics, national values, method.

ВАЖНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

В данной статье всесторонне раскрываются роль и педагогическое значение национальных ценностей в формировании социальных характеристик детей дошкольного возраста в соответствии с современными требованиями обучения и воспитания. В ходе исследования с научно-теоретических позиций анализируются сущность понятия национальных ценностей, их воспитательный потенциал и влияние на процесс социализации личности в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, ребёнок, общение, социально-психологическое развитие, особенности, национальные ценности, метод.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarining o'ri va pedagogik ahamiyati zamonaviy ta'lim-tarbiya talablari asosida keng yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida milliy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyati, ularning tarbiyaviy salohiyati hamda maktabgacha yosh davrida shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, bola, muloqot, ijtimoiy -psixologik rivojlanish, xususiyatlar, milliy qadriyatlar, metod.

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha yosh davridan boshlab bolalarning intellektual, kommunikativ hamda hissiy rivojlanishini ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, bolalar rivojida samarali muloqot usullarini tanlash, ijtimoiy tajribani egallash jarayonida xulq-atvorning shakllanish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, shaxslararo munosabatlarning bola shaxsiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bolaning tengdoshlari guruhida tutgan o'ri, ya'ni uning referent maqomi, jamoa ichida qabul qilinishi, o'zaro hamkorlikda faol ishtirok etishi va ijtimoiy mavqeining qaror topishi hamda barqarorlashuvi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi hamda ijobiy xulq-atvor motivlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda inson shaxsiga bolalik davridanoq mustaqil va oliy qadriyat sifatida yondashish, uning muloqot faoliyatini ijtimoiy va hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali bola uchun muhim bo'lgan kattalar hamda tengdoshlari bilan barqaror va ijobiy munosabatlarni yo'lga qo'yish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, bolalar rivojiga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit omillarining rivojlantiruvchi hamda inhibitsion (tormozlovchi) ta'sirlarini aniqlash, ularning shaxs

rivojiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sir mexanizmlarini ochib berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu jarayonda oila muhiti, maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi, tarbiyachilar, pedagog-psixologlar hamda mutaxassislar faoliyatining uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ota-onalar uchun farzand bilan samarali muloqot qilish usullarini o'rgatishga qaratilgan tavsiyalar, tarbiyachilar uchun bolalarning shaxslararo munosabatlarni kuzatish va diagnostika qilish metodikalari, psixolog-mutaxassislar uchun esa bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan psixologik yo'riqnomalarni ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Shuningdek, zamonaviy ilmiy izlanishlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya, hamkorlik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, muloqot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari ham dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuvlar asosida ishlab chiqiladigan ilmiy tavsiyalar va amaliy yo'riqnomalar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan K.A.Abulxanova- Slavskaya, B.G.Ananev, A.G.Asmolov, A.A.Bodalev, L.I.Bojovich,

L.S.Vygotskiy, M.V.Gamezo, M.I.Lisina, V.S.Gerasimova, V.V.Davidov, T.A.Dumitashku, A.D.Kosheleva, V.S.Muxina, L.M.Orlova, G.B.Tagieva, R.J.Muxamedraximov, A.V.Petrovskiy, A.I.Setinina, D.B.Elkonin va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bolada o'zligini anglash, ehtiyoj va motivlarni yuzaga kelishi va «Men» konsepsiyasi shakllanishining muhim bosqichi sifatida tadqiq etilgan [2].

Respublikamiz olimlaridan maktabgacha yosh davrida ijtimoiy xususiyatlarining shakllanishi muammosi bilan Sh.D.Bekova, M.G.Davletshin, Sh.Dusmuxamedova, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, L.Nazirova, Z.A.Rasulova, M.Sh.Rasulova, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, O'.B.Shamsiev, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziev va boshqalar tadqiqotlarida shaxs shakllanishida qadriyatlarining o'rni, ijtimoiy muhit, oila va oilaviy munosabatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi masalalari, shaxs xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar ta'siri va kommunikativ qobiliyatlarining roli tadqiq etilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota- bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti hamda millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Maktabgacha ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llabquvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning « Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir » degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi". Milliy qadriyatlarimizning tarbiyaviy ta'sirini oshirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu tushunchalarni takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish yo'lida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borish bugungi kun talabidir. Chunki bugungi bog'cha bolasi ertangi kunimizning egasidir. Inson ma'naviyatida eng qadrlanadigan tuyg'ulardan biri – bu milliy g'urur, vatanparvarlik va milliy qadriyat tushunchalaridir. Milliy g'urur, milliy qadriyat, vatanga e'tiqod to'g'risida so'z yuritishdan oldin “ vatan ”, “ milliy qadriyat ” va “e'tiqod” tushunchalarining mazmuni - mohiyati haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lmoq darkor. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida bolalarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Abdurauf Fitrat o'zining “ Oila ” nomli asarida bolalarni “diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgating... Ko'rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar”, – deya ta'kidlab, farzand tarbiyasiga e'tibor berish lozimligini uqtiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimizning qomusiy hujjati bo'lib, bu hujjat tahlil qilinganida unda bolalar tarbiyasi, axloqodobi, ijtimoiy himoyalangani, konstitutsiyaviy haq - huquqlariga oid yetmishga yaqin atama va so'z birlikmalari mavjud ekani ma'lum bo'ldi. Jumladan, bunyodkorlik g'oyalari sodiqlik, yuksak mas'uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, demokratik- huquqiy davlat, fuqarolarning tinchligi, ijod erkinligi va har bir shaxsning madaniy yutuqlardan foydalanish erkinligi, yosh avlodni tarbiyalash va bepul ta'lim olishi kabi fikrlar keltirilgan bo'lib, ular Bosh Qomusimizda huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Tahlil va natijalar. Odob-axloq milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismidir. “Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi” [1]. Darhaqiqat, yosh avlodni qonuniylik prinsiplari asosida o'z xalqiga, uning qadriyatlariga, an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash orqali o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatani va jonkuyarini tarbiyalash dolzarbdur. Bilamizki, bolalar ijtimoiy guruh sifatida, o'zi ko'zlagan maqsadi yo'lida mamlakatdagi ijtimoiy tizim rivojiga bevosita faol ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning ijtimoiy rivojlanishini ularning ma'naviy saviyasi darajasi orqali aniqlasa bo'ladi. Bolalarning ma'naviy qarashlari milliy, diniy, o'z-o'zini anglash holatlari, talablari, hayotdagi faoliyati orqali o'z aksini ifoda etadi. Maktabgacha ta'lim yosh davrida bolalarga beriladigan ma'naviy- axloqiy tarbiya bevosita M.Koshg'ariy, U.Kaykovus, A.N.Forobiy, Al- Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi Sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida keltirilgan ma'naviy manbalar, xalq tilidan yozib olingan alla, ertak, maqol, topishmoqlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari orqali singdiriladi. Mashhur allomalarimizdan Forobiy “Yertaklar orqali bolalar ilk bor vatan, do'stlik, saxiylik, adolat, mehnatsevarlik haqida tushunchaga ega bo'ladilar va vatani va chinakam fidoisiga aylanadilar”, degan fikrni ilgari suradi: “Bolalikdan vatan, xalq, do'stlik, mehnatsevarlik tuyg'usi qon-qoniga ilk bor ertaklar orqali singgan bolalar, keyinchalik voyaga yetgach, haqiqat dan ham, ona yurtining chinakam fidoyi fuqarosi, do'stlik, birodarlikning qadriga yetuvchi, mehnat mo'jizalarini yaratuvchi, xulq- atvorda yuksaklikka ko'tarilgan, qudratli va bag'ri keng xalqqa aylanadi...”

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar hamda ilmiy manbalar sharhi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida, ayniqsa uning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, kommunikativ kompetensiyalari, milliy g'urur, vatanparvarlik va milliy qadriyatlar asosidagi dunyoqarashining qaror topishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bolaning tengdoshlari bilan munosabatlari, referent guruhi doirasidagi mavqei, jamoa tomonidan qabul qilinishi va ijtimoiy faol ishtiroki uning o'ziga bo'lgan ishonchi, emotsional barqarorligi hamda ijobiy xulq-atvor motivlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot materiallari shuni tasdiqlaydiki, bolalarning shaxslararo munosabatlar tizimi, muloqot madaniyati va ijtimoiy xulq-atvori shakllanishida oila muhiti, maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi hamda pedagog va psixolog mutaxassislar faoliyatining uzviy hamkorligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini maktabgacha yoshdan boshlab maqsadli va tizimli shakllantirish bolalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan nazariy qarashlar hamda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy ertaklar, allalar, maqol va topishmoqlardan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish bolalarda ijtimoiy moslashuv, empatiya, hamkorlik, adolat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi va shaxslararo munosabatlari shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot-larga milliy qadriyatlar mazmunini integratsiya qilgan holda maxsus pedagogik modullarni joriy etish;

tarbiyachilar uchun bolalarning referent mavqei, jamoaga moslashuv darajasi va muloqot faolligini aniqlashga xizmat qiluvchi soddalashtirilgan psixologik-pedagogik diagnostika vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

pedagog-psixologlar faoliyatida bolalarda empatiya, nizolarni konstruktiv hal etish, hamkorlik va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening va korreksion dasturlarni tizimli tashkil etish;

ota-onalar uchun farzand bilan samarali va ijobiy muloqot olib borish, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini oilada shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar hamda psixologik yo‘riqnomalar ishlab chiqish;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim-tarbiya jarayoniga Sharq mutafakkirlari pedagogik qarashlari hamda

xalq og‘zaki ijodi namunalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy va tormozlovchi ta‘sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy muhit omillarini aniqlashga qaratilgan kompleks monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik va ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik ta‘sirlar tizimini ilmiy asosda takomillashtirish nafaqat bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta‘minlaydi, balki kelajakda jamiyatning ma‘naviy barqarorligi, fuqarolik mas‘uliyati va ijtimoiy taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya // <https://www.un.org/ru/global-issues/children>
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2017.
4. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012
5. Norbosheva M. Maktabgacha yoshdagi bolaning muloqot subyekti sifatida ijtimoiy psixologik rivojlanish xususiyatlari. Pedagogika fanlari nomzodi ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2022.